

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI PARA SPORTGA JALB QILISH

Nuriddinov Muhammadkarim

*Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish
1-bosqich magistranti*

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.12.2025

Revised: 30.12.2025

Accepted: 31.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*para sport, nogironligi
bo'lgan shaxslar,
paralimpiyada, ijtimoiy
izolyatsiya, inklyuziv ta'lim,
jismoniy tarbiya, ijtimoiy
moslashuv, rehabilitatsiya.*

ANNOTATSIYA:

*Maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarni
para sport turlariga jalb qilishning ijtimoiy,
pedagogik va psixologik jihatlari ilmiy-
nazariy asosda tahlil qilingan. Para
sportning nogironligi bo'lgan shaxslarning
jamiyatda o'z o'rnini topishi, jismoniy
rivojlanishi, sog'lig'ini mustahkamlash,
ijtimoiy moslashuvi va jamiyat hayotida faol
ishtirok etishidagi ahamiyati ochib berilgan.
Shuningdek, para sportga jalb etish
jarayonida mavjud muammolar va ularni
bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar
ishlab chiqilgan.*

Kirish

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Parijda bo'lib o'tgan XVII Yozgi Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etgan O'zbekiston sport delegatsiyasi vakillari bilan uchrashuvdagi nutqida "Paralimpiya o'yinlari – bu chinakam iroda, jasorat va matonat, ezgulik va gumanizm namoyishi desak, to'g'ri bo'ladi. Ma'lumki, O'zbekiston o'z sport tarixida ko'p yutuq va zafarlarni ko'rgan. Lekin Paralimpiya o'yinlarida bunday rekord natija ilgari hech qachon bo'lmagan edi. Bu – sizlarning tinimsiz mehnatingiz, bukilmas irodangiz, iste'dod va mahoratingiz samarasidir."

"Har qanday sinov-bu yangi marraga yo'l" Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotida teng huquqli ishtirok etishini ta'minlash bugungi kunda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda para sport sohasi nogironligi bo'lgan shaxslarning jismoniy faolligini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Para sport nafaqat sport yutuqlariga erishish vositasi, balki ijtimoiy moslashuvning samarali shakli sifatida ham e'tirof etish mumkin.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqot maqsadi – nogironligi bo‘lgan shaxslarni para sportga jalb qilishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqot vazifalari:

- para sportning ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini aniqlash;
- para sport mashg‘ulotlarining psixologik ta‘sirini tahlil qilish;
- para sportni rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash;
- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimli yondashuv hamda pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism

Para sport musobaqalari Ikkinchi jahon urushidan keyin, asosan nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilarni reabilitatsiya qilish maqsadida paydo bo‘lgan. Birinchi rasmiy Paralimpiya o‘yinlari 1960-yilda Rimda bo‘lib o‘tgan.

Asosiy maqsad nogironligi bo‘lgan sportchilarga o‘z mahoratlarini namoyish etish, jismoniy tarbiya va sport orqali ijtimoiy hayotga integratsiyani kuchaytirish va ularning hayot sifatini yaxshilashdan iborat.

Para sport — bu nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun tashkil etiladigan sport musobaqalari bo‘lib, ularning imkoniyatlarini namoyish etish va jismoniy faolligini oshirishga qaratilgan. "Paralympic" so‘zi yunoncha "para" (yonida, parallel) va "Olympic" so‘zlarining birikmasidan kelib chiqqan bo‘lib, Olimpiya o‘yinlari bilan teng huquqlilikni anglatadi.

Para sportning ijtimoiy ahamiyati -Para sport nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatga moslashuvini ta‘minlovchi muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Sport faoliyati orqali ular jamoada ishlash, muloqot qilish va ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy izolyatsiyasini (ajratish, yakkalsh) kamaytirishga va eng asosiysi jamiyatda o‘z o‘rnini topishga xizmat qiladi.

Pedagogik jihatlar-Para sport mashg‘ulotlari maxsus pedagogik yondashuv asosida tashkil etilishi lozim. Mashg‘ulotlarda ishtirokchilarning individual imkoniyatlari, sog‘liq holati va psixofiziologik xususiyatlari hisobga olinadi. To‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar jismoniy rivojlanish bilan birga reabilitatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Psixologik omillar-Para sport bilan muntazam shug‘ullanish nogironligi bo‘lgan shaxslarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, stress va depressiv holatlarni kamaytiradi va har qanday qiyin vaziyatlarni yenga olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Sport yutuqlari shaxsning ijobiy motivatsiyasini shakllantirib, hayot sifatining yaxshilanishiga olib keladi.

O‘zbekiston hukumati nogironligi bo‘lgan shaxslarni sportga jalb etish masalasiga alohida e‘tibor qaratmoqda. Bu borada bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bepul shug‘ullanish imkoniyati 2024-yil 15-dekabrda boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslar davlat mulkida bo‘lgan jismoniy tarbiya sog‘lomlashtirish va sport inshootlarida maxsus yo‘llanma asosida bepul shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lishdi. Qaror va dasturlar haqida

so'z borganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari, jumladan, PQ-389-son (08.11.2024) va PQ-5114-son (18.05.2021), nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy rehabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Adaptiv (moslashtirilgan) sport turlari bo'lib, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan sport turlaridir. Misol uchun sog'lom sportchilar uchun og'ir atletika sport turini olsak para sportchilar uchun para paverlisting sportini olish mumkin. Adabativ sportdagi ko'nikmalar bilangina para sportda yuqori natija erishish mumkin.

Sport bo'limlari tashkil etish, barcha turdagi sport ta'lim muassasalarida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sport bo'limlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Ommaviy tadbirlar O'zbekiston Milliy Paralimpiya qo'mitasi va Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamkorligida doimiy ravishda turli xil sport tadbirlari va musobaqalar o'tkazilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar natijasida nogironligi bo'lgan shaxslarning sport bilan muntazam shug'ullanishini ta'minlash, ularga zarur sharoitlarni yaratish va iqtidorli sportchilarni tanlab olishga imkon bermoqda. U esa yurtimizda para sport turlarining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Para sportni rivojlantirish jarayonida quyidagi muammolar mavjud:

- Para sportga yo'naltirishda nogironligi bor shaxslarning tortinchoqligi.
- Maxsus sport inshootlari va moslashtirilgan jihozlar yetishmasligi.
- Malakali murabbiy va pedagog kadrlar tanqisligi.
- Para sportni targ'ib qilish ishlarining yetarli darajada olib borilmasligi.

Xulosa

Yurtimizda ushbu soha davlat siyosati darajasida ekanligini takidlash lozim. Nogironligi bo'lgan shaxslarga yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda para sportga jalb etish orqali yuqori natijaga erishishga mumkin. Ushbu sohadagi nogironligi bo'lgan shaxslarni para sportga jalb qilish ularning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatdagi faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Para sportni ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni adaptiv sport turlariga yo'naltirish orqali, kelajakda Paralimpiya o'yinlari g'olibligini qo'lga kiritish uchun para sportchilarni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Parijda bo'lib o'tgan XVII Yozgi Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etgan O'zbekiston sport delegatsiyasi vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrda O'RQ-641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni; <https://lex.uz/docs/-5049511>

3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya; <https://lex.uz/docs/-5501227#-5521235>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrda PQ-410-sonli “O‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori; <https://lex.uz/docs/-6725077>

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-martda 123-sonli “O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida” gi qarori; <https://www.lex.uz/uz/docs/-6834968>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-mayda PQ-5114-sonli “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-5426278>

7. Sherrill C. Adapted Physical Activity, Recreation and Sport. – New York: McGraw-Hill, 2019.

8. DePauw K.P., Gavron S.J. Disability Sport. – Human Kinetics, 2018.

9. Raximov A.X. Inklyuziv jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2021.